

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
HUZURIDAGI KASBIY TA‘LIM AGENTLIGI  
KASBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG  
KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN TEMIR YO‘L  
IZI VA NAZORATI FANIDAN MALAKA TEST SINIVI  
TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

**Toshkent – 2026**

# **O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN TEMIR YO‘L IZI VA NAZORATI FANIDAN MALAKA TEST SINIVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

## **I. Maqsad**

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta‘lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Temir yo‘l izi va nazorati fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me‘yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

## **II. Me‘yoriy asoslar**

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta‘lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 572-sonli Qarori.**

## **III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari**

Temir yo‘l izi va nazorati

1. Temir yo‘l izining tuzilishi, asosiy elementlari va ularning vazifalari;
2. Temir yo‘l izining geometrik parametrlarini o‘lchash va nazorat qilish;
3. Relslar, shpallar va ballast qatlamining texnik holatini baholash;
4. Strelkali o‘tkazgichlar va ularning elementlarini tekshirish hamda xizmat ko‘rsatish;
5. Temir yo‘l izini saqlash, ta‘mirlash va xavfsizlikni ta‘minlash choralari.

#### IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Testlar soni
<b>1</b>	Yer polotnosi qurilishining umumiy asoslari	Ushbu bo‘limda tuproq turlari va ularning klassifikatsiyasini bilish, gruntlarning fizik-mexanik xossalari tushuntirish, yer polotnosi elementlarini (asos, ko‘tarma, kesma) farqlash talab etiladi. Shuningdek, yer polotnosiga qo‘yiladigan texnik va normativ talablarni baholash, deformatsiya va buzilish sabablarini aniqlash, suv turlarini (kapillyar, gravitatsion, yer osti) farqlash, sho‘rlangan gruntlarni aniqlash hamda yer ishlari hajmini hisoblash ko‘nikmalariga ega bo‘lish zarur.	<b>10 ta</b>
<b>2</b>	Temir yo‘l izining geometrik parametrlari	Bu bo‘limda temir yo‘l o‘qlari orasidagi masofalarni aniqlash, to‘g‘ri va egri uchastkalarda normativ masofalarni qo‘llash hamda geometrik parametrlarning harakat xavfsizligiga ta‘sirini tushuntirish talab etiladi.	<b>2 ta</b>
<b>3</b>	Temir yo‘l elementlari va qurilmalari	Ballast qatlamining vazifasi va turlarini tushuntirish, ballast materiallarini tanlash mezonlarini aniqlash, relslar markirovkasi (masalan, R65) mazmunini izohlash talab etiladi. Shuningdek, relslarning elektr va mexanik vazifalarini tushuntirish, strelkali o‘tkazgichlarning tuzilishi va ishlash prinsipini bilish, krestovina va kontrrelslarning vazifalarini aniqlash, yo‘l elementlarining o‘zaro bog‘liqligini tushuntirish zarur. Bundan tashqari, nosozlik va deformatsiyalarni aniqlash, egri uchastkalarda yo‘l kengligining o‘zgarishini tushuntirish hamda texnik me‘yorlar asosida foydalanish cheklovlarini bilish talab etiladi.	<b>13 ta</b>
<b>4</b>	Texnik xizmat ko‘rsatish va ekspluatatsiya	Temir yo‘l inshootlarini ekspluatatsiya qilish qoidalarini tushuntirish, inshoot va harakatlanuvchi tarkib gabaritlarini farqlash talab etiladi. Shuningdek, signal belgilarining vazifasini aniqlash, temir yo‘l kesishmalarining ishlash prinsipini tushuntirish, drenaj tizimlarining vazifasini izohlash zarur. Bundan tashqari, grunt zichligini baholash usullarini qo‘llash, shpallarni yotqizish talablari va ballast qalinligini aniqlash hamda texnik nazorat ko‘rsatkichlarini qo‘llash talab etiladi.	<b>8 ta</b>

<b>5</b>	Xavfsizlik, tashqi omillar va maxsus sharoitlar	Temir yo'lni qor bosishi va boshqa tabiiy omillardan himoya qilish choralarini tushuntirish, yo'llarni tozalash ustuvorligini aniqlash talab etiladi. Shuningdek, strelkali o'tkazgichlarni tozalash usullarini farqlash, yangi qurilgan inshootlarni foydalanishga qabul qilish tartibini tushuntirish, yo'lni loyihalashda minimal radius talablarini aniqlash zarur. Bundan tashqari, avtomatik pnevmoochistka tizimining tarkibini tushuntirish hamda temir yo'lga xavf tug'diruvchi omillarni aniqlash talab etiladi.	<b>7 ta</b>
----------	---	--	-------------

### V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	<b>Bilish</b>	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	<b>20 %</b>
2.	<b>Qo'llash</b>	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	<b>60 %</b>
3.	<b>Mulohaza qilish</b>	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	<b>20 %</b>

### VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

### VII. Baholash mezoni va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.  
Test topshirig'ini bajarish uchun 80 daqiqa vaqt me'yori belgilanadi.

### **VIII. Imtihon tartibi**

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

### **IX. Tavsiya etilgan adabiyotlar**

1. "Temir yo'l qurilishi. Texnologiya va mexanizatsiya. S.P. Pershin tahriri ostida. Moskva: Transport nashriyoti, 1991."

2. Temir yo'l izi. A.F.Rasulev, A.N.Ovchinnikov, I.I.Kuznetsov Darslik Toshkent ToshTYMI. 2018.- 184b

3. Temiryo'l polotnosini qurish texnologiyasi. Q. S. Lesov O'quv qo'llanma TTYMI 2016

4. Temir yo'l izi. A.F. Rasulov tahriri ostida. Toshkent, 2006.

5. Temir yo'l izlarini o'zaro tutashuv va kesishuvlari. O'quv qo'llanma. Z.E.Mirsalixov, A.Yu.Mamadaliyev. "Complex print" nashriyoti T.:2018

6. Temir yo'llarni yuqori tezlikda harakatlanuvchi poyezdlar uchun qayta qurishni tashkil etish: temir yo'l transporti OTMlari uchun o'quv qo'llanma. I.V. Prokudin tahriri ostida. Moskva: Marshrut nashriyoti, 2005.

*\*Eslatma: test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to'g'ridan - to'g'ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko'rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko'ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.*